

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmurodovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

IMOMJON KHAMIDOV

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

JUMAQULOV TEMUR

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





TA'LIM – MOLİYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Buxoro davlat universiteti

Marketing va menejment kafedrası o'qituvchisi

E-mail: hamidov.rushan@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5776-5002

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limning aholi moliyaviy savodxonligini oshirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda moliyaviy savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (moliyaviy bilim, moliyaviy ko'nikma, moliyaviy xulq-atvor va moliyaviy munosabat) tahlil qilingan, xalqaro tajriba (OECD/INFE, S&P Global FinLit, PISA moliyaviy savodxonlik moduli) qiyosiy o'rganilgan hamda O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik modeli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlikni oshirishda tizimli, yoshga mos va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarining samaradorligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar. moliyaviy savodxonlik, ta'lim, uzluksiz ta'lim, moliyaviy xulq-atvor, pedagogik model, kompetensiya, moliyaviy inklyuziya, OECD/INFE, o'quv dasturi.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически исследована роль образования в повышении финансовой грамотности населения. Проанализированы сущность понятия финансовой грамотности и её структурные компоненты (финансовые знания, навыки, поведение и установки), изучен международный опыт (OECD/INFE, S&P Global FinLit, модуль финансовой грамотности PISA), а также предложена педагогическая модель формирования финансовой грамотности через систему непрерывного образования в условиях Узбекистана. Результаты исследования обосновывают эффективность системных, соответствующих возрасту и практико-ориентированных образовательных программ.

Ключевые слова: финансовая грамотность, образование, непрерывное образование, финансовое поведение, педагогическая модель, компетенция, финансовая инклюзия, OECD/INFE, учебная программа.

Abstract. This article examines, both theoretically and practically, the role of education as a key instrument for improving financial literacy. The essence of the concept of financial literacy and its structural components (financial knowledge, skills, behaviour and attitudes) are analysed; international experience (OECD/INFE, S&P Global FinLit, the PISA financial literacy module) is comparatively studied; and a pedagogical model for developing financial literacy through the system of lifelong education in Uzbekistan is proposed. The findings substantiate the effectiveness of systematic, age-appropriate and practice-oriented educational programmes in enhancing financial literacy.

Keywords: financial literacy, education, lifelong learning, financial behaviour, pedagogical model, competence, financial inclusion, OECD/INFE, curriculum.

KIRISH

Jahonda moliyaviy xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi, raqamli to'lov tizimlari, onlayn kreditlash, investitsiya platformalari va kriptoaktivlarning ommalashuvi aholidan moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni talab etmoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha katta yoshli aholining o'rtacha uchdan bir qismigina moliyaviy savodxonlikning bazaviy mezonlariga javob beradi, bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirishni global miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy





muammo darajasiga ko'targan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda uning moliyaviy ta'lim bo'yicha xalqaro tarmog'i (INFE) moliyaviy savodxonlikni «shaxsning moliyaviy farovonligiga erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor majmuasi» sifatida ta'riflab, uni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida aynan ta'lim tizimini e'tirof etadi.

O'zbekistonda ham mazkur masala davlat siyosati darajasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Markaziy bank tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha milliy strategiya doirasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, umumta'lim maktablari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlik elementlarini integratsiya qilish jarayoni boshlangan. Shu bilan birga, mamlakatimizda mikroqarzlar bo'yicha muammoli qarzдорlikning o'sishi, piramida ko'rinishidagi firibgarlik sxemalarining tarqalishi va aholining jamg'arma hamda sug'urta vositalaridan yetarlicha foydalanmayotgani moliyaviy savodxonlikni oshirishda ta'limning roli tizimli tadqiq etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda moliyaviy savodxonlik ko'proq iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, uni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, ya'ni qaysi yosh bosqichida, qanday mazmun, metod va vositalar orqali samarali rivojlantirish mumkinligi masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida moliyaviy savodxonlikni bosqichma-bosqich shakllantirishning yaxlit modeli ishlab chiqilmagan. Mazkur holat tadqiqot muammosini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi – ta'limni moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida nazariy asoslash hamda O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning amaliy yondashuvlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: moliyaviy savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish; moliyaviy ta'lim borasidagi xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish; ta'lim bosqichlari kesimida moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish; modelni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy savodxonlik muammosi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. A.Lusardi va O.Mitchell tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik inson kapitalining alohida shakli sifatida qaralib, uning jamg'arma xulq-atvori, pensiya rejalashtirish va qarz yukini boshqarish bilan bevosita bog'liqligi empirik jihatdan asoslangan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan «Big Three» (foiz stavkasi, inflyatsiya va risk diversifikatsiyasi bo'yicha uchta bazaviy savol) metodikasi moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchashning xalqaro standartiga aylangan. O.Atkinson va F.Messi ishlarida OECD/INFE metodologiyasi asosida moliyaviy savodxonlikning





uch komponentli tuzilmasi – bilim, xulq-atvor va munosabat birligi asoslab berilgan.

Pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlarda (L.Mandell, B.Kaiser, L.Menkhoff va boshqalar) maktab va oliy ta'limdagi moliyaviy ta'lim dasturlarining samaradorligi o'rganilgan. Meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, sifatli tashkil etilgan moliyaviy ta'lim dasturlari o'quvchilarning moliyaviy bilimlarini sezilarli darajada oshiradi, ammo bilimning xulq-atvorga aylanishi uchun mashg'ulotlar amaliy vaziyatlarga asoslangan, takrorlanuvchan va hayotiy qarorlar bilan bog'langan bo'lishi lozim. Bu holat pedagogikada «o'qitiladigan payt» (teachable moment) konsepsiyasi orqali izohlanadi: moliyaviy bilim aynan tegishli moliyaviy qaror qabul qilinadigan davrda berilsa, uning o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi yuqori bo'ladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari ishlarida moliyaviy savodxonlikni oshirishning institutsional jihatlarini, milliy strategiyalarni amalga oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi va pedagog olimlarning ishlarida esa aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi, banklarga ishonch masalalari va yoshlar moliyaviy madaniyatini shakllantirish yo'llari o'rganilgan. Biroq ta'kidlash joizki, mavjud tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlik asosan makroiqtisodiy va institutsional nuqtai nazardan yoritilgan bo'lib, uni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida izchil shakllantirishning yaxlit pedagogik modeli ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi – moliyaviy savodxonlik tushunchasi evolyutsiyasi va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish uchun; qiyosiy tahlil metodi – OECD/INFE, S&P Global FinLit Survey, PISA moliyaviy savodxonlik moduli natijalari hamda yetakchi mamlakatlarning moliyaviy ta'lim dasturlarini solishtirish uchun; tizimli-strukturaviy yondashuv – moliyaviy savodxonlikni shakllantirish jarayonini uzluksiz ta'lim bosqichlari kesimida modellashtirish uchun; pedagogik modellashtirish metodi – ta'lim bosqichlariga mos maqsad, mazmun, metod va natijalarni o'zaro bog'langan tizim sifatida loyihalash uchun. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar (OECD, Jahon banki, S&P Global) hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda mavzuga oid ilmiy maqolalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik tushunchasining mazmuni va tarkibiy komponentlari. Adabiyotlar tahlili moliyaviy savodxonlik tushunchasining tor (faqat bilim) talqinidan keng (kompetensiyaviy) talqiniga o'tish tendensiyasini ko'rsatdi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, moliyaviy savodxonlik quyidagi to'rt komponentning birligi sifatida qaraladi: 1) moliyaviy bilim – pul, foiz, inflyatsiya, kredit, jamg'arma, sug'urta, soliq va investitsiya haqidagi bazaviy tushunchalar





tizimi; 2) moliyaviy ko'nikmalar – shaxsiy byudjet tuzish, moliyaviy mahsulotlarni taqqoslash, raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish qobiliyati; 3) moliyaviy xulq-atvor – daromad va xarajatlarni rejalashtirish, muntazam jamg'arish, qarz yukini nazorat qilish kabi amaliy odatlar; 4) moliyaviy munosabat (ustanovka) – kelajakka yo'naltirilganlik, mas'uliyatli iste'mol va riskka nisbatan ongli munosabat. Ushbu to'rt komponentli tuzilma ta'lim jarayonini loyihalashda muhim metodologik ahamiyatga ega: an'anaviy o'qitish asosan birinchi komponentga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy moliyaviy ta'lim barcha to'rt komponentni yaxlit rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Xalqaro tajriba tahlili. S&P Global FinLit Survey ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi rivojlangan mamlakatlarda (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya – 71 foiz atrofida) rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli yuqori bo'lib, mazkur farqning asosiy omillaridan biri – moliyaviy ta'limning maktab dasturlariga institutsional integratsiya qilinganligidir. PISA tadqiqotining moliyaviy savodxonlik moduli natijalari ham maktabda tizimli moliyaviy ta'lim olgan o'quvchilarning natijalari yuqori ekanini tasdiqlaydi. Yetakchi mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

**Moliyaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha ayrim mamlakatlar
tajribasining qiyosiy tavsifi**

Mamlakat nomi	Institutsional shakl	Asosiy yondashuv	O'ziga xos jihati
Avstraliya	Milliy o'quv dasturiga integratsiya	Matematika va jamiyatshunoslik fanlari orqali fanlararo o'qitish	MoneySmart Teaching platformasi orqali o'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash
Buyuk Britaniya	Majburiy dastur elementi (fuqarolik ta'limi va matematika)	Xulq-atvorga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar	Moliyaviy ta'limni erta yoshdan (5–7 yosh) boshlash
Niderlandiya	Milliy strategiya (Money Wise platformasi)	Barcha manfaatdor tomonlarni muvofiqlashtirish	«Milliy pul haftaligi» kabi ommaviy ta'lim aksiyalari
Yaponiya	Markaziy bank qoshidagi kengash dasturlari	Jamg'arma madaniyatini tarbiyalash	Maktab-oila hamkorligiga tayanish
Estoniya	Umumta'lim standartiga kiritilgan	Raqamli moliyaviy xizmatlar bilan ishlash	PISA moliyaviy savodxonlik reytingida yetakchilik

Qiyosiy tahlil natijalari quyidagi umumiy qonuniyatlarni ko'rsatdi: birinchidan, moliyaviy ta'lim alohida fan sifatida emas, ko'proq mavjud fanlarga (matematika, iqtisodiyot, texnologiya, fuqarolik ta'limi) integratsiya qilingan holda samarali natija beradi; ikkinchidan, muvaffaqiyatli milliy modellarning barchasida o'qituvchilarni tayyorlash va metodik ta'minot markaziy o'rin tutadi; uchinchidan, davlat organlari, moliya institutlari va ta'lim muassasalari





o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik institutsional barqarorlikni ta'minlaydi; to'rtinchidan, dasturlar yoshga mos ketma-ketlikda (spiral tamoyili asosida) quriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik modeli. Tadqiqot natijasida O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirilgan, spiral tamoyiliga asoslangan pedagogik model ishlab chiqildi. Modelning mohiyati shundaki, moliyaviy savodxonlikning to'rt komponenti har bir ta'lim bosqichida yoshga mos murakkablik darajasida takroran va chuqurlashtirilgan holda rivojlantirib boriladi. Modelning bosqichlar kesimidagi mazmuni 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ta'lim bosqichlari kesimida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish modeli

Ta'lim bosqichi	Ustuvor maqsad	Mazmun yadrosi	Yetakchi metod va vositalar
Maktabgacha ta'lim	Pul va mehnat haqidagi dastlabki tasavvurlar	Pulning vazifasi, «xohish» va «ehtiyoj» farqi, tejamkorlik	Didaktik o'yinlar, ertak va multimedia materiallari, rolli o'yinlar
Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinf)	Elementar hisob-kitob va tejamkorlik odatlari	Cho'ntak pulini rejalashtirish, jamg'arish, oddiy xarid qarorlari	Amaliy mashqlar, loyiha topshiriqlari, matematika darslariga integratsiya
Umumiy o'rta ta'lim (5–11-sinf)	Ongli moliyaviy qarorlar kompetensiyasi	Oila byudjeti, bank xizmatlari, kredit va foiz, sug'urta, soliqlar, raqamli to'lovlar, firibgarlikdan himoya	Keys-stadi, biznes-o'yinlar, simulyatsiyalar, «Iqtisodiy bilim asoslari» fani
Professional va oliy ta'lim	Mustaqil moliyaviy hayotga tayyorlik	Shaxsiy moliyaviy rejalashtirish, investitsiya asoslari, tadbirkorlik moliyasi, pensiya jamg'armalari	Amaliyotga asoslangan modullar, fintech-ilovalar bilan ishlash, startap loyihalari
Kattalar ta'limi	Moliyaviy xulq-atvorni korrektsiyalash	Qarz yukini boshqarish, jamg'arma va sug'urta vositalari, onlayn xavfsizlik	Mahalla va ish joyidagi treninglar, media-loyihalar, masofaviy kurslar

Modelning amal qilishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar aniqlandi: o'qituvchilarning moliyaviy-metodik kompetensiyasini oshirish tizimining mavjudligi; o'quv materiallarining milliy kontekstga (so'm, mahalliy bank mahsulotlari, milliy soliq tizimi) moslashtirilganligi; ta'lim natijalarini OECD/INFE metodikasi asosida davriy o'lchab borish; ota-onalar va mahalla institutining jarayonga jalb etilishi; moliyaviy tashkilotlar bilan ijtimoiy sheriklikning yo'lga qo'yilishi.





Moliyaviy savodxonlik shakllanganlik darajalarini baholash mezonlari. Modelning muhim tarkibiy qismi – ta’lim natijalarini baholashning mezoniy apparati hisoblanadi. Tadqiqot doirasida moliyaviy savodxonlikning to’rt komponenti bo’yicha shakllanganlikning uch darajasi ajratildi. Quyi (reproduktiv) daraja: o’quvchi asosiy moliyaviy tushunchalarni biladi, lekin ularni real vaziyatlarga mustaqil tatbiq eta olmaydi; moliyaviy qarorlari asosan vaziyatga bog’liq va rejalashtirilmagan. O’rta (produktiv) daraja: o’quvchi moliyaviy tushunchalar o’rtasidagi bog’liqliklarni tushunadi, standart vaziyatlarda (byudjet tuzish, mahsulotlarni taqqoslash) to’g’ri qaror qabul qiladi, jamg’arish odati shakllanish bosqichida bo’ladi. Yuqori (ijodiy) daraja: o’quvchi nostandart moliyaviy vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, risklarni baholaydi, uzoq muddatli moliyaviy maqsadlar qo’yadi va ularga izchil intiladi, moliyaviy axborotni tanqidiy qabul qiladi. Mazkur darajalar diagnostikasi uchun test topshiriqlari (bilim komponenti), amaliy keyslar (ko’nikma komponenti), kuzatuv va o’z-o’zini baholash varaqalari (xulq-atvor va munosabat komponentlari) kombinatsiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Baholash tizimini xalqaro qiyoslanuvchanlik talabiga moslashtirish uchun OECD/INFE kattalar so’rovnomasi va PISA moliyaviy savodxonlik modulining topshiriq tiplaridan milliy kontekstga adaptatsiya qilingan holda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda topshiriqlar mazmuni mahalliy moliyaviy voqelik – milliy valyuta, mahalliy bank mahsulotlari, kommunal to’lovlar va raqamli to’lov ilovalari misolida qurilishi, mavhum xorijiy vaziyatlar esa chetlab o’tilishi lozim. Shuningdek, baholash natijalari faqat o’quvchini attestatsiya qilish vositasi emas, balki o’quv dasturi va metodikani takomillashtirish uchun qayta aloqa manbai sifatida qaralishi kerak.

MUHOKAMA

Olingan natijalar ta’limning moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi ustuvor roli haqidagi nazariy qoidalarni tasdiqlaydi va rivojlantiradi. Birinchidan, moliyaviy savodxonlikning to’rt komponentli tuzilmasi ta’lim jarayonini loyihalashda kompetensiyaviy yondashuvni taqozo etadi. Bu jihatdan bizning xulosalarimiz A.Lusardi va O.Mitchell qarashlari bilan hamohang bo’lib, ularni pedagogik jihatdan konkretlashtiradi: moliyaviy bilim zarur, biroq yetarli shart emas; bilimning barqaror xulq-atvorga aylanishi uchun ta’lim jarayoni amaliy qaror qabul qilish vaziyatlarini modellashtirishga asoslanishi kerak.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba tahlili shuni ko’rsatadiki, moliyaviy ta’limning samaradorligi alohida kampaniyalar emas, balki institutsional barqarorlik – dasturlarning davlat ta’lim standartlariga kiritilganligi, o’qituvchilar tayyorgarligi va monitoring tizimi bilan belgilanadi. Bu xulosa O’zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega: hozirgi bosqichda moliyaviy savodxonlik bo’yicha o’tkazilayotgan tadbirlar ko’lami kengaygan bo’lsa-da, ularni yagona pedagogik konsepsiya va izchil o’quv-metodik ta’minot asosida tizimlashtirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.





Uchinchidan, taklif etilgan spiral model «o'qitiladigan payt» konsepsiyasini uzluksiz ta'lim mantig'iga tatbiq etadi: har bir yosh bosqichida shaxs duch keladigan real moliyaviy vaziyatlar (cho'ntak puli, birinchi bank kartasi, stipendiya, birinchi ish haqi, kredit, oilaviy byudjet) o'quv mazmunining tayanch nuqtalariga aylantiriladi. Bunday yondashuv mazmunning hayotiyligini ta'minlab, motivatsiya muammosini yumshatadi. Shu bilan birga, modelning cheklovlarini ham qayd etish lozim: u nazariy-analitik tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, uning samaradorligini empirik tekshirish (pedagogik tajriba-sinov, nazorat va tajriba guruhleri kesimida) keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy savodxonlik mazmuni doimiy yangilanib borishi zarur. Onlayn mikroqarzarlar, BNPL xizmatlari, kriptoaktivlar va ijtimoiy tarmoqlardagi «moliyaviy maslahatchilar» faoliyati an'anaviy o'quv dasturlarida aks etmagan yangi risklarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun modelda raqamli moliyaviy savodxonlik alohida kesishuvchi (transversal) yo'nalish sifatida barcha bosqichlarga singdirilgan. Bu jihat moliyaviy savodxonlik va axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari integratsiyasi to'g'risidagi zamonaviy ilmiy qarashlarga mos keladi.

Beshinchidan, modelni amaliyotga joriy etishning hal qiluvchi bo'g'ini – pedagog kadrlar hisoblanadi. O'qituvchining o'zi moliyaviy jihatdan savodli bo'lmasa yoki mavzuni faqat nazariy bayon qilish bilan cheklansa, dasturning ta'sirchanligi keskin pasayadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning moliyaviy-metodik tayyorgarligini kuchaytirish, amaldagi o'qituvchilar uchun esa modulli malaka oshirish kurslari, tayyor dars ishlanmalari banki va metodik hamjamiyatlar tizimini yaratish zarur. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirishda ijtimoiy-demografik jihatlarni – ayollar, qishloq aholisi va yoshi kattaroq fuqarolarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish talab etiladi, chunki xalqaro tadqiqotlar aynan ushbu guruhlarda moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlari nisbatan past ekanini qayd etadi. Ta'lim dasturlarini differensiatsiya qilish, mahalla instituti, kutubxonalar va ommaviy axborot vositalari salohiyatidan foydalanish moliyaviy ta'limning qamrovini kengaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Moliyaviy savodxonlik – bilim, ko'nikma, xulq-atvor va munosabat komponentlarining birligidan iborat 296mpiric296c296e kompetensiya bo'lib, uni shakllantirishning eng samarali va tizimli vositasi ta'lim hisoblanadi. Ta'lim orqali shakllantirilgan moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsning moliyaviy farovonligiga, balki moliyaviy inklyuziyaning chuqurlashuviga, ichki jamg'armalarning o'sishiga va milliy iqtisodiyot barqarorligiga xizmat qiladi.

2. Xalqaro tajriba moliyaviy ta'limning muvaffaqiyati uchta institutsional shartga tayanishini ko'rsatadi: dasturlarning davlat ta'lim standartlariga





integratsiyasi, o'qituvchilarning uzluksiz metodik tayyorgarligi hamda natijalarni xalqaro qiyoslanuvchan metodikalar asosida monitoring qilish.

3. O'zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlikni uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida spiral tamoyili asosida izchil shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, ishlab chiqilgan 297mpiric297c model buning uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi: umumta'lim maktablarining davlat ta'lim standartlariga moliyaviy savodxonlik natijalarini kompetensiya sifatida kiritish va ularni sinflar kesimida aniqlashtirish; pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga «Moliyaviy savodxonlikni o'qitish metodikasi» modulini kiritish hamda amaldagi o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish; milliy kontekstga moslashtirilgan, yoshga mos interaktiv o'quv-metodik majmualar (darslik, ish daftari, raqamli platforma, mobil ilova) yaratish; Markaziy bank, Moliya vazirligi, ta'lim vazirliklari va tijorat banklari o'rtasida moliyaviy ta'lim bo'yicha ijtimoiy sheriklik mexanizmini institutsionallashtirish; moliyaviy savodxonlik darajasini OECD/INFE metodikasi asosida davriy o'lchash va natijalarni ta'lim siyosatini korreksiyalashda qo'llash.

Kelgusi tadqiqotlar taklif etilgan modelni 297mpiric297c tajriba-sinov orqali 297mpiric tekshirish, ta'lim bosqichlari bo'yicha diagnostika vositalarini ishlab chiqish hamda raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning metodik tizimini yaratishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha milliy strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2021.

3. Lusardi A., Mitchell O.S. The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence // Journal of Economic Literature. – 2014. – Vol. 52, No. 1. – P. 5–44.

4. Atkinson A., Messy F.-A. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study // OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. – 2012. – No. 15.

5. OECD. Recommendation of the Council on Financial Literacy. – Paris: OECD Publishing, 2020.

6. OECD. PISA 2022 Results (Volume IV): How Financially Smart Are Students? – Paris: OECD Publishing, 2024.

7. Klapper L., Lusardi A., van Oudheusden P. Financial Literacy Around the World: Insights from the Standard & Poor's Ratings Services Global Financial Literacy Survey. – Washington, D.C.: World Bank, 2015.





8. Kaiser T., Menkhoff L. Does Financial Education Impact Financial Literacy and Financial Behavior, and If So, When? // The World Bank Economic Review. – 2017. – Vol. 31, No. 3. – P. 611–630.
9. Kaiser T., Lusardi A., Menkhoff L., Urban C. Financial Education Affects Financial Knowledge and Downstream Behaviors // Journal of Financial Economics. – 2022. – Vol. 145, No. 2. – P. 255–272.
10. Mandell L., Klein L.S. The Impact of Financial Literacy Education on Subsequent Financial Behavior // Journal of Financial Counseling and Planning. – 2009. – Vol. 20, No. 1. – P. 15–24.
11. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, D.C.: World Bank, 2022.
12. Зеленцова А.В., Блискавка Е.А., Демидов Д.Н. Повышение финансовой грамотности населения: международный опыт и российская практика. – М.: ЦИПСИР, КНОРУС, 2012. – 112 с.
13. Ahunova O.E. O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning dolzarb masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №2.
14. OECD. Financial Literacy in Schools: OECD/INFE Guidelines. – Paris: OECD Publishing, 2014.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**